IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 21 Issue 2 May 2026

MATNNING KATEGORIAL BELGILARI VA TIL SOFLIGI MASALASI

Munisjonova Madinaxon Yoqubjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti magistranti
bonuyusupova936@gmail.com

Ilmiy rahbar: **Quldashev Nizomiddin Axmadaliyevich**
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.20100737

Annotatsiya

Ushbu maqolada matnning kategorial belgilari va til sofligi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Matn yaxlitligi, bog‘liqlik, koherensiya, informativlik va modallik kabi kategoriyalar til ekologiyasi nuqtayi nazaridan o‘rganiladi. Zamonaviy o‘zbek tilida uchrayotgan chet til unsurlari, internet slengi va normativ buzilishlarning matn sifatiga ta’siri misollar asosida yoritiladi. Tadqiqot natijalari til sofligi matnning strukturaviy va semantik mukammalligini ta’minlashda muhim omil ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: matn kategoriyalari, til ekologiyasi, til sofligi, kohezion, koherensiya, informativlik, modallik.

Annotation

This article analyzes the interrelation between textual categorical features and language purity from a linguistic perspective. Categories such as textual cohesion, coherence, informativeness, modality, and completeness are examined in relation to language ecology. The study highlights the impact of foreign language elements, internet slang, and normative deviations in modern Uzbek on text quality through practical examples. The results show that language purity plays a crucial role in ensuring the structural and semantic integrity of a text.

Keyword: text categories, language ecology, language purity, cohesion, coherence, informativeness, modality.

Аннотация

В данной статье рассматривается взаимосвязь категориальных признаков текста и языковой чистоты с лингвистической точки зрения. Анализируются такие категории текста, как целостность, связность, когерентность, информативность и модальность в контексте языковой экологии. На примерах показано влияние заимствований, интернет-сленга и нормативных нарушений в современном узбекском языке на качество текста. Результаты исследования демонстрируют, что языковая чистота является важным фактором структурной и семантической целостности текста.

Ключевые слова: категории текста, языковая экология, чистота языка, когезия, когерентность, информативность, модальность.

KIRISH

Matnning mohiyatini aniqlash masalasi ko‘plab tilshunoslar e’tiborini tortib kelmoqda. Tadqiqotchilar matnni matn darajasiga ko‘taruvchi asosiy belgilarni aniqlashda V. Dressler, M. Hallidey, R. Hasan, I. R. Galperin kabi olimlarning qarashlariga tayanadilar.

V. Dressler va R. de Bogrand matnning maqomi uning yetti asosiy belgisi bilan belgilanadi, deb hisoblaydi. Bular: kogeziya (matn qismlarining grammatik va leksik bog‘liqligi), kogerentlik (mantiqiy-semantik uyg‘unlik), intensionallik (kommunikativ maqsadga bog‘liqlik), adresatlik (axborotni qabul qiluvchini hisobga olish), informativlik (yangilik darajasi), situativlik (vaziyatga bog‘liqlik) va intertekstualik (boshqa matnlar bilan bog‘liqlik).

Yevropa tilshunosligida ushbu belgilar asosiy mezon sifatida qaraladi, rus tilshunosligida esa matnni gapdan farqlash masalasi ko‘proq o‘rganiladi. Matnning yaxlitlik va bog‘liqlik kabi xususiyatlari uni oddiy gapdan ajratib turadi, biroq bu belgilar har doim ham to‘liq yetarli emas.

Pragmalingvistik yondashuvda esa matnning asosiy belgisi sifatida uning kommunikativ maqsadi muhim o‘rin tutadi[1].

Zamonaviy tilshunoslikda matn alohida gaplar yig‘indisi emas, balki murakkab va ko‘p qatlamli kommunikativ birlik sifatida qaraladi. Matn lingvistikasi doirasida matnni shakllantiruvchi asosiy kategorial belgilar — yaxlitlik, bog‘liqlik (kohezion), mantiqiy izchillik (koherensiya), informativlik, modallik va tugallanganlik — muhim o‘rin tutadi. Ushbu kategoriyalar matnning mazmuniy va strukturaviy mukammalligini ta’minlaydi. Shu bilan birga, til ekologiyasi masalalari, ya’ni tilning sofligi, adabiy me’yorlarga mosligi va ortiqcha o‘zlashmalardan xoli bo‘lishi zamonaviy o‘zbek tilining rivojida dolzarb muammolardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, globallashuv va internet kommunikatsiyasi natijasida tilga kirib kelayotgan chet til elementlari matn sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu jihatdan matn kategorial belgilari va til sofligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Mazkur tadqiqotda deskriptiv, qiyosiy va lingvistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Turli uslubdagi matnlar — ilmiy, publitsistik va internet matnlari tanlab olinib, ularning til sofligi darajasi hamda matn kategoriyalarining namoyon bo‘lishi o‘zaro solishtirildi. Matnlarda uchraydigan leksik aralashuvlar, sintaktik buzilishlar va stilistik nomuvofiqliklar aniqlanib, ularning matn yaxlitligi va bog‘liqligiga ta’siri tahlil qilindi.

Ekolingvistika inson va uni o‘rab turgan muhit o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni o‘rganadigan yo‘nalish hisoblanadi. Bu yondashuvda til inson, jamiyat hamda tabiat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlovchi muhim vosita sifatida talqin etiladi. Shu nuqtai nazardan, tilning sofligi masalasi ekolingvistik tadqiqotlarda yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Tilni sof holda saqlash muammosi tarix davomida doim dolzarb bo‘lib kelgan.

Jadid ma’rifatparvari Mahmudxo‘ja Behbudiy tilni tozalash masalasiga alohida e’tibor qaratgan. U “Sadoyi Turkiston” gazetasida chop etilgan maqolalarni tahlil qilar ekan, bu boradagi sa’y-harakatlarni amalda bajarilishi qiyin bo‘lgan orzu sifatida baholaydi. Uning fikricha, asrlar davomida arab va fors tillari ta’sirida shakllangan turkiy tilni qisqa vaqt ichida bu ta’sirdan xoli qilish mushkul. Aksincha, rivojlangan xalqlar bilan aloqalar natijasida tilga yangi birliklar kirib kelishi tabiiy jarayon ekanligini ta’kidlaydi[2].

Til sofligi masalasiga boshqa tadqiqotchilar ham o‘z munosabatlarini bildirganlar. Xususan, V. S. Yelistratov[3] bu muammoni lingvistik nuqtai nazardan yoritgan. E. V. Ivanova esa tilni o‘ziga xos ekotizim sifatida talqin qilib, uning faoliyati va rivojlanishini muhit bilan uzviy aloqada ko‘rib chiqadi.

Hozirgi kunda til ekologiyasi uch asosiy yo‘nalishda o‘rganiladi:

Intralingual yo‘nalish – bu nutq madaniyati, uslubiyat va ritorika bilan bog‘liq bo‘lib, nutqning to‘g‘riligi, aniqligi, mantiqiyligi hamda ifodaviyligini buzuvchi omillarni tahlil qiladi.

---

[1] Kurbanova M., Yo‘ldoshev M. Matn tilshunosligi. – Toshkent: Universitet, 2014.

[2] Mahmudxo‘ja Behbudiy. Jadidlar. – Toshkent, 2022.

[3] Литературная газета. – М., 2012. – №42.

Interlingual yo‘nalish – ko‘p tillilik sharoitida tillarning o‘zaro ta’siri, ayrim tillarning yo‘qolib borishi va til xilma-xilligining kamayishi kabi masalalarni o‘rganadi.

Translingual yo‘nalish – bir til birliklarining boshqa til va madaniyat doirasida qo‘llanishi, ayniqsa badiiy adabiyot, folklor va publitsistikada namoyon bo‘ladigan hodisalarni qamrab oladi.

Intralingual yo‘nalishda tilning ichki imkoniyatlari asosida yuzaga keladigan muammolar tahlil qilinadi. Bu jarayonda, ayniqsa, uslubiyat bilan bog‘liq masalalar muhim ahamiyat kasb etadi. Nutq jarayonida uchraydigan xatoliklar bilan bir qatorda uning to‘g‘riligi, aniqligi va emotsional-ekspressivligi ham muhim mezon sifatida qaraladi. Nutqning to‘g‘riligi esa barcha kommunikativ xususiyatlar ichida ustuvor hisoblanadi, chunki noto‘g‘ri shakllangan nutqda boshqa sifatlar haqida gapirish qiyin[4].

Nutq madaniyati nafaqat adabiy til me’yorlarini ongli ravishda qo‘llash, balki jamiyatda estetik til didini shakllantirishga xizmat qiladigan muhim omildir. Ayrim hollarda so‘zlarning ma’nosiga yetarli e’tibor berilmagani sababli nutqda g‘alizlik va tushunarsizlik yuzaga keladi. Masalan, “taklif qilmoq” o‘rnida “tavsiya etmoq” yoki “ko‘yi” o‘rnida “yo‘li” so‘zlarini qo‘llash nutqni yanada aniq va tabiiy qiladi.

Intralingual aspekt doirasida stilistik xatolar ham muhim o‘rganish obyektidir. S. Sultonsaidova va O‘. Sharipova tadqiqotlarida stilistika nutq stilistikasi va til stilistikasiga ajratiladi. Nutq uslublariga so‘zlashuv, rasmiy, ilmiy, publitsistik va badiiy uslublar kiradi. Har bir uslubda til birliklarini o‘rinli qo‘llash muhim bo‘lib, masalan, rasmiy uslubda buyruq maylidagi fe’llar faol ishlatiladi, boshqa uslublarda esa kam qo‘llanadi.

Nutq sifati masalasiga S. I. Ojegov ham e’tibor qaratib, yuqori nutq madaniyati fikrni aniq, to‘g‘ri va ta’sirchan ifodalash qobiliyati bilan belgilanadi, deya ta’kidlaydi. Yaxshi nutq tinglovchi yoki o‘quvchiga to‘liq yetib borishi va ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatishi bilan ahamiyatlidir.

Nutqning kommunikativ sifatlari — to‘g‘rilik, aniqlik va mantiqiylik — buzilganda til ekologiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, adabiy til me’yorlariga rioya qilmaslik nutqning noto‘g‘ri shakllanishiga olib keladi. Biroq badiiy matnlarda ayrim grammatik yoki stilistik chekinishlar obrazlilikni kuchaytirish maqsadida qo‘llanishi mumkin.

Aniq nutq tuzish uchun so‘zlarning ma’nosini chuqur bilish zarur. Bu borada Aristotel nutq aniqligi uning samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri ekanligini ta’kidlaydi. Shuningdek, sinonimlardan o‘rinli foydalanish, paronimlarni farqlash nutqning aniqligini oshiradi.

Nutqning mantiqiyligi ham muhim bo‘lib, u fikrlarning izchil va asosli bayon qilinishini ta’minlaydi. Noto‘g‘ri tuzilgan gaplar esa mazmunning buzilishiga olib keladi.

Ritorika bilan bog‘liq jihatlar ham til ekologiyasiga bevosita ta’sir qiladi. Notiq nutqida qo‘llanayotgan so‘zlarning ma’nosiga chuqur e’tibor qaratishi, ularni o‘rinli tanlashi zarur. Bu esa nutqning ta’sirchanligini oshiradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, til sofligi yuqori darajada saqlangan matnlarda kategorial belgilar ham aniq va izchil namoyon bo‘ladi. Masalan, “Til birliklari o‘zaro bog‘lanib, matnni hosil qiladi. Ushbu birliklar yagona mazmunni ifodalaydi” kabi ilmiy matnda “til birliklari” birligi takror orqali bog‘lanib, kohezionni ta’minlaydi. Aksincha, “Til birliklari interactionga kirishadi va text hosil qiladi” kabi aralash matnda inglizcha unsurlar sababli bog‘liqlik sun’iylashadi va matnning tabiiyligi yo‘qoladi. Xuddi shuningdek, “Yoshlarning kitobxonlik

[4] Haugen E. The Ecology of language. Essays by Einar Haugen. – Stanford, 1972.

darajasi pasaymoqda, shu sababli ta’lim tizimida o‘qishga qiziqishni oshirish zarur” kabi matnda sabab-oqibat munosabati aniq ifodalangan bo‘lsa, “Yoshlar reading qilmayapti, shuning uchun educationda problem bor” kabi jumlada til aralashuvi mantiqiy izchillikni idrok etishni qiyinlashtiradi. Informativlik kategoriyasida ham farq kuzatiladi: “Sinonimlar nutqning boyligini oshiradi” kabi gap aniq ma’lumot bersa, “Sinonimlar nutqni more rich qiladi” kabi ifoda normativlikdan chetga chiqadi. Modallik va tugallanganlik jihatlarida ham til buzilishi matnning ta’sirchanligi va yakunlanganligini pasaytiradi. Internet nutqida “Bugun meeting bor”, “Assignmentni submit qildingmi?” kabi aralash konstruktsiyalar keng qo‘llanib, matnning yaxlitligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tahlil natijalari til sofligi va matn kategorial belgilari o‘rtasida bevosita va uzviy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Til ekologiyasi me’yorlariga rioya qilingan matnlar izchil, mantiqan uyg‘un va kommunikativ jihatdan samarali bo‘ladi. Aksincha, tilning buzilishi matnning fragmentatsiyasiga, mantiqiy uzilishlarga va tushunarsizlikka olib keladi. Ayniqsa, ortiqcha o‘zlashmalar, internet slengi va tarjima konstruktsiyalari matn sifatini pasaytiruvchi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli zamonaviy o‘zbek tilida matn yaratishda adabiy me’yorlarga qat’iy rioya qilish, ortiqcha chet til unsurlarini cheklash va milliy ifoda vositalaridan samarali foydalanish zarur hisoblanadi.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, har bir til egasi nutqini shakllantirishda tilning ichki imkoniyatlaridan ongli ravishda foydalanishi lozim. Noo‘rin va ortiqcha birliklardan qochish nutqning samaradorligini oshiradi hamda til ekologiyasini saqlashga xizmat qiladi. Nutqdagi kamchiliklarga beparvo qarash esa asta-sekin til madaniyatining susayishiga olib kelishi mumkin. Shu bois intralingual tahlillar tilga bo‘lgan e’tibor va hurmatning muhim ko‘rinishi sifatida baholanadi.

Matnning kategorial belgilari va til sofligi o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan murakkab lingvistik hodisalardir. Ularning o‘zaro integratsiyasi matnning umumiy sifatini sezilarli darajada oshiradi, chunki mazmun va shakl uyg‘unligi ta’minlanadi. Bunday uyg‘unlik natijasida matn yanada aniq, ravon va mantiqan izchil tus oladi. Shu bilan birga, til sofligiga amal qilinishi matnning tushunarliligini kuchaytirib, o‘quvchi yoki tinglovchi tomonidan uni tez va to‘g‘ri anglash imkonini beradi.

Bundan tashqari, kategorial belgilar — xususan, bog‘liqlik, izchillik va informativlik — tilning toza va me’yoriy qo‘llanilishi bilan birgalikda matnning kommunikativ samaradorligini oshiradi. Ya’ni, muallif yetkazmoqchi bo‘lgan fikr aniq, lo‘nda va ta’sirchan shaklda ifodalanadi hamda adresatga to‘liq yetib boradi. Aksincha, til sofligiga rioya qilinmasa yoki matn kategoriyalari buzilsa, fikrning noaniqligi, g‘alizligi va tushunarsizligi yuzaga kelishi mumkin.

Shu bois har qanday matnni yaratish jarayonida nafaqat uning strukturaviy yaxlitligi va mantiqiy tashkil etilishiga, balki til vositalarining to‘g‘ri, o‘rinli va me’yoriy qo‘llanishiga ham alohida e’tibor qaratish zarur. Faqat shundagina matn yuqori sifatli, estetik jihatdan mukammal va kommunikativ jihatdan samarali bo‘la oladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Haugen E. The Ecology of language. Essays by Einar Haugen. – Stanford, 1972.
2. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Jadidlar. – Toshkent, 2022.
3. Muhammadjonova L. Ritorika. – Toshkent, 2019.
4. Omonturdiyev A., Abduraimova Sh. O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyati. – Toshkent, 2016.
5. Rasulov R., Husanov N., Mo‘ydinov Q. Nutq mahorati. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2006.

6. Sultonsaidova S., Sharipova O‘. O‘zbek tili stilistikasi. – Toshkent: Yurist-media markazi, 2009.
7. Kurbanova M., Yo‘ldoshev M. Matn tilshunosligi. – Toshkent: Universitet, 2014.
8. Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Тошкент: Ёш гвардия, 1987.
9. Литературная газета. – М., 2012. – №42.